



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGIDA IQTISODIY
SAMARADORLIKNI INNOVATSIYALAR ASOSIDA TA'MINLASH
IMKONIYATLARI

Sharqiyeva Nafisa Ixtiyor qizi

Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti Samarqand filiali "Raqamli iqtisodiyot va axborot
texnologiyalari" kafedarsi assistenti

Yuldosheva Zulfizar Saifullo qizi

Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti Samarqand filiali "Raqamli iqtisodiyot va axborot
texnologiyalari" kafedarsi assistenti

Annotatsiya: Maqolada O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligida iqtisodiy samaradorlikni innovatsiyalar asosida ta'minlash imkoniyatlari asoslab berilgan. Bunda asosiy e'tibor ilg'or xorij tajribasidan mamlakat qishloq xo'jaligida foydalanish imkoniyatlarini asoslashga qaratilgan.

Kalit so'zlar: qishloq xo'jaligi, innovatsiya, investitsiya loyihasi, iqtisodiy samaradorlik, moliyalashtirish, texnopark, davlat buyurtmasi, moliyaviy imtiyozlar.

Аннотация: В статье обоснованы возможности обеспечения экономической эффективности в сельском хозяйстве Республики Узбекистан на основе инноваций. При этом основное внимание уделено обоснование возможности использования передового зарубежного опыта в сельском хозяйстве страны.

Ключевые слова: сельское хозяйство, инновация, инвестиционный проект, экономическая эффективность, финансирование, технопарк, государственный заказ, финансовые льготы.

Annatation: The article substantiates the possibilities of ensuring economic efficiency in agriculture of the Republic of Uzbekistan on the basis of innovations. At the same time, the main attention is paid to the substantiation of the possibility of using advanced foreign experience in the country's agriculture.

Key words: agriculture, innovation, investment project, economic efficiency, financing, technopark, state order, financial benefits.

KIRISH

2021-2025 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida tarkibiy o'zgartirishlarni chuqurlashtirish va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini izchil rivojlantirish, mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini yanada mustahkamlash, ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish, agrar sektorning eksport salohiyatini sezilarli darajada oshirish, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlash, yarim tayyor va tayyor oziq-ovqat hamda qadoqlash mahsulotlarini ishlab chiqarish bo'yicha eng zamonaviy yuqori texnologik asbob-uskunalar bilan jihozlangan yangi qayta ishlash korxonalarini qurish, mavjudlarini rekonstruksiya va



modernizatsiya qilish bo'yicha investitsiya loyihalarini amalga oshirish qishloq xo'jaligini rivojlantirish va isloh qilishning ustuvor yo'nalishi sifatida e'tirof etilgan [1].

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqotni amalga oshirishda induksiya va deduksiya, ekspert baholash, guruhlash va trendli tahlil usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning axborot manbi sifatida O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlaridan foydalanildi.

Tahlillar va natijalar

Buning ustiga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 1 maydagi PQ-4700-sonli "Koronavirus pandemiyasi davrida oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, mavjud resurslardan oqilona foydalanish, qishloq xo'jaligini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga muvofiq, dunyoda oziq-ovqat mahsulotlari yetishmovchiligi yuzaga kelishi mumkin bo'lgan sharoitda qishloq xo'jaligidagi mavjud resurslar va imkoniyatlardan to'liq foydalanish, oziq-ovqat ekinlarini ikki barobarga ko'paytirish, yuqori hosil olish, qishloq xo'jaligi sohasida yangi ish o'rinlarini yaratish va manfaatdorlikni oshirish borasida zamonaviy yondashuvlarni joriy etish vazifasi qo'yilgan [2].

Yuqorida qayd etilgan holatlar mamlakat qishloq xo'jaligida iqtisodiy samaradorlikni innovatsiyalar asosida ta'minlash zaruriyatini yuzaga keltiradi.

Y.Shumpeterning tadbirkorlik nazariyasiga ko'ra, mahsulotlar ishlab chiqarishdagi innovatsiya quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- * yangi texnikalar va texnologiyalardan foydalanish;
- * yangi xususiyatlarga ega bo'lgan mahsulotlarni joriy qilish;
- * yangi xom-ashyodan foydalanish [3].

F.Naytning noaniqlik nazariyasiga ko'ra, innovatsiyalar bir qator omillarni harakatga keltiradiki, natijada ular yangi qonunlar, global tashqi muhit kabi ekzogen omillar bilan o'zaro bog'liqlikda harakatlanadi [4].

X.Noybauerning fikriga ko'ra, korxonalarning faoliyatiga birinchi marta joriy etilgan hamda unga aniq iqtisodiy ijtimoiy foyda keltirgan barcha yangiliklarni innovatsiya deb hisoblash mumkin [5].

Iqtisodiy jihatdan taraqqiy etgan mamlakatlarning tajribasi shuni ko'rsatadiki, qishloq xo'jaligida innovatsion faoliyatning natijadorligi va tovar ishlab chiqaruvchilarning innovatsion jarayonlarga jalb etilganlik darajasi jahon qishloq xo'jalik bozoriga kirib borish muvaffaqiyatini va qishloq xo'jalik tovar ishlab chiqaruvchilarini raqobatbardoshligini belgilaydi [6].

Ye.Ijmulkinaning fikriga ko'ra, dunyoning yetakchi agrar iqtisodiyotlarida qishloq xo'jaligi darajasi va texnologiyalari bo'yicha texnologik rivojlanishning oltinchi darajasiga to'g'ri keladi va uning rivojlanishi innovatsiyalarni nanotexnologiyalar, biotexnologiyalar, muqobil energetika, yangi axborot texnologiyalari sohalariga muvaffaqiyatli transfer qilinganligi bilan bog'liqdir [7].

1-jadval

O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligining alohida iqtisodiy ko'rsatkichlari [8]

Ko'rsatkichlar	2023 y.	2024y.	2025 y.	2025 yilda 2023
----------------	---------	--------	---------	-----------------



				yilga nisbatan o'zgarishi
Qishloq xo'jalik mahsulotlari hajmi, mlrd. so'm	187 425	216 283	249 754	133,3 %
Qishloq xo'jalik mahsulotlarining o'sish sur'ati, %	100,2	103,3	102,8	2,6 f.p.
Qishloq xo'jalik mahsulotlari eksportining jami eksportdagi ulushi, %	9,4	10,4	10,5	1,1 f.p.
Qishloq xo'jalik mahsulotlari eksportining jami importdagi ulushi, %	8,1	7,8	10,2	2,1 f.p.

1-jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, 2022-2024 yillarda O'zbekiston Respublikasida qishloq xo'jalik mahsulotlarining hajmi o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan. Buning ustiga, qishloq xo'jalik mahsulotlarining hajmi 2024 yilda 2022 yilga nisbatan yuqori sur'atda o'sgan. Bu esa, qishloq xo'jaligida amalga oshirilayotgan islohotlarning natijasi hisoblanadi.

1-jadval ma'lumotlari ko'rsatadiki, 2018-2020 yillarda O'zbekiston Respublikasi eksportining umumiy hajmida qishloq xo'jalik mahsulotlari eksportining ulushini o'sish tendensiyasi kuzatilgan. Bu esa, qishloq xo'jaligining eksport salohiyatini oshirish nuqtai-nazaridan ijobiy holat hisoblanadi.

1-jadval ma'lumotlaridan ko'rish mumkinki, 2023 yilda qishloq xo'jalik mahsulotlari importining mamlakat jami importidagi ulushi 2022 yilga nisbatan pasaygani holda, ushbu ko'rsatkich 2024 yilda 2023 yilga nisbatan oshgan.

Fikrimizcha, qishloq xo'jaligida iqtisodiy samaradorlikni innovatsiyalar asosida rivojlantirish uchun quyidagi tadbirlarni amalga oshirish lozim:

1. Rivojlanish darajasi nisbatan past bo'lgan agrar tumanlarda texnoparklarni tashkil qilish yo'li bilan qishloq xo'jaligini va u bilan uzviy bog'liq bo'lgan tarmoqlarni rivojlantirish orqali texnologik klasterni shakllantirish lozim.

Agrar sohada texnologik klasterni shakllantirish borasidagi xorij tajribasi ko'rsatadiki:

birinchidan, klaster tarkibiga kiruvchi tor ixtisoslashuvga asoslangan firmalarning yuqori ishlab chiqarish unumdorligi ta'minlanadi (ko'plab operatsiyalar ixtisoslashgan va texnologik jihatdan murakkab bo'lgan hozirgi sharoitda alohida texnologik operatsiyalargacha ixtisoslashish raqobat kurashida ustunlik beradi);

ikkinchidan, klasterlarda innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarish imkoniyatlari kengayadi, chunki, klaster ichida ishlab chiqarish bazasi bilan birlashgan va yetarli darajada moliyalashtirish manbalari bilan ta'minlangan ilmiy salohiyat to'planadi;

uchinchidan, yaratilgan innovatsion ishlanmalarni qishloq xo'jaligi va u bilan uzviy bog'liq bo'lgan tarmoqlarga joriy etish muddatini kamaytiradi, xarajatlarini qisqartirish imkonini beradi.

2.Qishloq xo'jaligiga innovatsion texnologiyalar va uskunalar ishlab chiqadigan kompaniyalarning faoliyatini rivojlantirish maqsadida quyidagi tadbirlarni amalga oshirish lozim:

*ushbu kompaniyalarni davlat mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladigan kompaniyalar orqali qo'llab-quvvatlash amaliyotini joriy qilish lozim;



*mazkur kompaniyalarga beriladigan davlat buyurtmalari hajmini oshirish kerak;

*agrar sohadagi oliy o'quv yurtlari va ilmiy-tadqiqot institutlarining innovatsion kompaniyalar bilan innovatsion mahsulotlarni ishlab chiqish va tijoratlashtirish sohasidagi hamkorligini mustahkamlash zarur.

3. Qishloq xo'jaligi korxonalari faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya va raqamli texnologiyalarni joriy etish ko'lamini kengaytirish maqsadida kraud-fanding, kraudsorsing, Ulkan ma'lumotlar (Big Data) va geolokatsiya texnologiyalarini joriy qilish lozim.

Ma'lumot o'rnida aytish joizki, kraudfanding odamlarning jamoaviy hamkorligi bo'lib, bunda odamlar o'zlarining pul mablag'larini yoki boshqa resurslarini ixtiyoriy ravishda birlashtiradilar. Ushbu mablag'lar turli shakldagi tadbirlarni moliyalashtirishga, shu jumladan, startap kompaniyalarni va kichik biznesni moliyalashtirishga, foyda olish maqsadida investitsiya qilishga yo'naltiriladi.

Ulkan ma'lumotlar texnologiyasi juda katta hajmdagi ma'lumotlarni yuqori tezlikda va aniqlikda qayta ishlash imkonini beradigan texnologiyadir.

Geolokatsiya texnologiyasi foydalanuvchining joylashgan o'rnini hisobga olgan holda axborot xizmatlari ko'rsatish uchun yangi imkoniyatlar yaratadi. Masalan, transport va odamlarning harakatlanishini sun'iy yo'ldosh (sputnik) orqali kuzatish xizmati (GPS, GLONASS). Ushbu kuzatish xizmati yo'nalishdan chetga chiqishni, transportdan maqsadsiz foydalanishni aniqlash, yoqilg'i xarajatini nazorat qilish imkonini beradi.

Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari tufayli agrar sohada tovarlar va xizmatlarning yangi turlari paydo bo'ladi va xizmatlar ko'rsatish tezligi sezilarli darajada oshadi.

Raqamli texnologiyalar katta hajmdagi operatsiyalar bo'yicha vazifalarni hal qilishni arzonlashtiradi, tezlashtiradi va vositachilarsiz amalga oshirish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli Farmoni. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida. www.lex.uz.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 1 maydagi PQ-4700-sonli "Koronavirus pandemiyasi davrida oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, mavjud resurslardan oqilona foydalanish, qishloq xo'jaligini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori. www.lex.uz.

3. Shumpeter Y. Teoriya ekonomicheskogo razvitiya. – M.: Direktmediya Publishing, 2008. – 400 s.

4. Nayt F. Risk, neopredelennost i pribil. – M.: Delo, 2003. – 358 s.

5. Noybauer X. Innovatsionnaya deyatelnost malix i srednix predpriyatiy//Problemi teorii i praktiki uparvleniya. – Moskva, 2002. – №3. – S. 62-63.

6. Reznichenko S. S., Andreyev S. Yu. Razvitiye agrarnogo sektora ekonomiki na osnove innovatsiy//Molodoy ucheniy. – Moskva, 2016. – № 8. – S. 27–28.



7. Ijmulkina Ye. A. Instrumenti upravleniya innovatsionnoy deyatelnostyu selskogo xozyaystva regiona. Avtoref.dis. na soiskaniye uch. stepeni kand. ekon. nauk.– Knyaginino, 2013. – 20 s.
8. Qishloq xo'jaligi. www,stat.uz (O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi).
9. Baratov, S. (2021). WAYS TO IMPROVE THE USE OF FISCAL POLICY TO REDUCE POVERTY. Economics and Innovative Technologies, 2021(5), 1.
10. Abdikobilov, S., Baratov, S., & Rakhmonova, A. (2021). INVESTMENTS IN INNOVATIONS IN THE MODERN WORLD: PROBLEMS AND PROSPECTS. Academic research in educational sciences, 2(7), 211-217.